SULTONOV Habib Karim o‘g‘li
Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani
5-son bolalar musiqa va san’at maktabi
Estrada xonandalik fani o‘qituvchisi
sultonovhabib994@gmail.com

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA FANI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): SULTONOV H. Umumta’lim maktablarida musiqa fani // Madaniyat ta’limi – Культурное образование – Cultural Education. № 2 (2026) B. 48.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida musiqa fanini o‘qitishning dolzarb muammolari tahlil qilinib, ta’lim jarayonini takomillashtirish hamda o‘quvchilar bilan samarali ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. Musiqa darslarida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish, o‘quvchilarning ijodiy salohiyati va estetik didini rivojlantirish, shuningdek, ovoz mutatsiyasi davrida vokal mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish masalalari yoritilgan. Musiqa ta’limining o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamoloti va madaniy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *musiqa ta’limi, musiqa fani, o‘qituvchi, zamonaviy metodlar, ijodkorlik, ovoz mutatsiyasi, ovoz apparati, estetik tarbiya.*

СУЛТАНОВ Хабиб Карим угли
Ташкентская область, Янгиюльский район
Детская музыкальная и художественная школа № 5
Преподаватель эстрадного пение
sultonovhabib994@gmail.com

ПРЕДМЕТ «МУЗЫКА» В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы актуальные проблемы преподавания предмета «Музыка» в общеобразовательных школах и представлены методические рекомендации по совершенствованию учебного процесса и эффективной работе с учащимися. Рассмотрены вопросы применения современных педагогических методов, развития творческого потенциала и эстетического вкуса школьников, а также организации вокальных занятий в период мутации голоса. Обоснована роль музыкального образования в формировании духовно-нравственных качеств и культурного мировоззрения учащихся.

Ключевые слова: *музыкальное образование, предмет «Музыка», учитель, современные методы, творчество, мутация голоса, голосовой аппарат, эстетическое воспитание.*

MUSIC AS A SUBJECT IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

SULTONOV Habib Karim ogli
Tashkent Region, Yangiyul District
Children's Music and Art School No. 5
Teacher of Pop Vocal Performance
sultonovhabib994@gmail.com

ANNOTATION

This article analyzes the current challenges of teaching Music in general secondary schools and provides methodological recommendations for improving the educational process and working effectively with students. It discusses the use of modern teaching methods, the development of students' creative potential and aesthetic appreciation, as well as the organization of vocal training during the period of voice mutation. The article also highlights the role of music education in fostering students' moral values and cultural awareness.

Keywords: *music education, Music, teacher, modern teaching methods, creativity, voice mutation, vocal apparatus, aesthetic education.*

O‘sib kelayotgan yosh avlodni davr talabiga javob beradigan komil inson sifatida tarbiyalash, ularni yuqori darajadagi mutaxassis qilib voyaga yetkazish davlatimiz rahbari targ‘ib etayotgan siyosatning asl mohiyatini tashkil etadi va bu o‘qituvchilarga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Inson bolaligidan to umrining so‘ngigacha kuylaydi yoki hirgoyi qiladi. Uning kundalik faoliyatida kuy va qo‘shiq hamisha hamroh bo‘ladi. Inson ovozi tabiiy va eng nozik musiqa sozidir. Ovoz ustida ishlash asta-sekinlik va davomiylik bilan amalga oshiriladi. Uni to‘g‘ri yo‘lga solish va sozlash pedagogdan sabr toqatli va e'tiborli bo‘lishni talab etadi. Ayniqsa umumta'lim maktablarda o‘qiyotgan o‘quvchi yoshlar e'tibordan chetda qolib ketmasligi kerak. Ularning iste'dodlisini saralab olgan holda, muntazam xor – vokal to‘garaklariga jalb etib borish lozim. Musiqaga qiziqishi bo‘lmagan yoki musiqiy qobiliyati bo‘lmagan bolani ham a'lo darajadagi tinglovchi qilib tarbiyalash mumkin. Umumta'lim maktablardagi o‘quvchilar ijodga juda chanqoq, konsert va tadbirlarga qatnashishga ishtiyoqi juda baland bo‘ladi. Ularning qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish uchun maktablarimizda barcha sharoitlar yaratilmoqda. Imkon qadar ushbu sharoitlardan samarali foydalanib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishimiz zarur.

Musiqa darslariga va to‘garaklariga faol ishtirok etadigan o‘quvchilarning deyarli hammasi qo‘shiq ijro etishga qiziqishadi. Musiqa darslarida va musiqa

to‘garaklarida vokal yoki xor jarayonlarini olib borishda alohida e’tibor qiladigan muammolar mavjud. Ushbu muammolardan o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda uchraydigan mutatsiya, ya’ni ovoz o‘zgarish jarayoni haqida to‘xtaladigan bo‘lsak. Bolaning butun organizmi bilan birga ovoz apparati ham doimo o‘sib, o‘zgarib boradi, shuning uchun ham bolalar katta bo‘lgani sayin ovozining xarakteri va kuchi o‘zgarib boradi. Bu o‘zgarish asosan o‘g‘il bolalar ovozida sezilarli yuz beradi. Natijada bola ovozi kattalar ovoziga o‘tadi. Ushbu davrda vokal asarlarini kuylatishda juda e’tiborli bo‘lish talab etiladi. Ovozni zo‘riqtirmaydigan va yengil qo‘shiqlarni kuylatish maqsadga muvofiqdir. Bu davr qizlarda deyarli sezilarsiz o‘tadi. Lekin baribir ayni mutatsiya yoshidagi barcha o‘g‘il-qizlar ovozi ustida ehtiyotkorlik bilan ish olib borish zarur. Qo‘shiq kuylash bu – organizmning funksiyalaridan biri bo‘lgan psixofiziologik jarayondir. Shuning uchun bolalarga qo‘shiq o‘rgatayotganimizda uning ovoz imkoniyati, xarakteriga e’tibor qaratishimiz kerak.

Dunyo tajribasini kuzatadigan bo‘lsak, barcha fanlar musiqa fani bilan uzviy bog‘liqlikda olib boriladi. Bunga sabab o‘quvchining kreativ fikrlashi, har bir sohaga ijodkorona yondashuviga aynan musiqa fani turtki bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, musiqa madaniyati darslarida faol o‘quvchilar estetikasi va tarbiyasi jihatidan tengdoshlari orasida har doim namuna bo‘ladi. Chunki musiqa yaxshilikni tarannum etadi. Bola bir zum bo‘lsada kuylayotgan qo‘shig‘i yoki chalayotgan kuyining ruhiyatiga kiradi va unda yashaydi. Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, atrofga e’tibor va eng asosiysi o‘ziga ishonch ortadi. Bularning barchasi musiqa o‘qituvchisidan yuksak mahorat talab qiladi.

Zamon shiddat bilan o‘zgarib borayotgan ayni paytda o‘qituvchilarimiz har bir sohaga o‘zgacha yondashishlari talab etiladi. O‘z mentalitetimiz va ta’lim standartlarimizdan chetga chiqmagan holda, yangicha yondashuvlar bilan dars jarayonini boyitish ish samaradorligini yanada oshiradi. Musiqa fanida ham bolalarning ijodkorlik qobiliyatlari, ravon va toza kuylashlari, dars jarayonida vazifalarni tez qabul qilishlari uchun, ularga turtki bo‘ladigan interfaol metodlardan foydalanish zarur. Aynan musiqa faniga oid bo‘lgan metodlarni qidirib topish, ularni darsda qo‘llash ayni muddao. Bundan tashqari o‘quvchilarni boshqa fanlarda ham faol bo‘lishlariga musiqa o‘qituvchilari turtki bo‘lishlari mumkin. Buning uchun musiqa darsiga boshqa fanlarni integratsiyalashtirib olib borish zarur. Uyg‘unlikda olib borilgan mavzu nafaqat boshqa fanlarga qiziqish uyg‘otadi, balki bolaning dunyoqarashini ham boyitadi. Musiqa tinglash, musiqa savodi va jamoa bo‘lib kuylash bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar ham olib borish boladagi ijodiy qiziqishlarining ro‘yobga chiqishiga yanada yaxshiroq turtki bo‘ladi. Masalan yaxshi ko‘rgan cholg‘u asbobini oddiy kundalik buyumlardan o‘zi mustaqil yasab kelishi, notalar yoki kalitlarni qog‘ozlar yordamida yasab kelish va shu kabilar.

Barchamiz bilamizki, hozirgi kunda barcha maktablarning moddiy bazasiga alohida e’tibor berilmoqda. Shu jumladan musiqa cholg‘u asboblari ham ko‘pgina maktablarda yetarli. Darsliklarda keltirilgan har bir qo‘shiqni bolalarga yetkazib

berishi uchun o‘qituvchida mana shu musiqa asboblaridan foydalana bilish imkoniyati yetarli daraja bo‘lishi kerak. Qo‘shiqning ohangi cholg‘u asbobda qanchalik chiroyli yangrasa, o‘qituvchi asarni kuylab berayotganda bolalarning diqqatini o‘ziga jalb qila olsa darsning samaradorligi yanada oshadi. Har bir darsning o‘z mavzusi bo‘lgani kabi, o‘qituvchining ham har bir darsdan maqsadi bo‘lishi lozim. Masalan “opera san’ati va o‘zbek musiqasida opera janri” mavzusini olaylik. Darsda o’qituvchining maqsadi opera janri haqida lo‘nda va tushunarli ma’lumot berish, bolalarda shu janr haqida qisqa bo‘lsada tushuncha uyg‘ota bilishdir. Yodda qolarli bolishi uchun interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Aytaylik bulardan savol-javob metodini olsak, bolalarga opera nomlarini bilasizmi, deb savol tashlasak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarida musiqa fanini samarali tashkil etish o‘quvchilarning estetik didi, ijodiy tafakkuri va ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Musiqa darslarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va fanlararo integratsiya asosida tashkil etish ta’lim samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Shuningdek, vokal mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlarini, ayniqsa ovoz mutatsiyasi davrini inobatga olish ularning ovoz salomatligini saqlash va vokal ko‘nikmalarini to‘g‘ri shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini muntazam oshirib borish, zamonaviy metodlarni amaliyotga joriy etish hamda mavjud moddiy-texnik bazadan samarali foydalanish musiqa ta’limi sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Natijada musiqa ta’limi o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda barkamol shaxsni shakllantirishning muhim vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
2. Qahhorov A. Vokal asoslari. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
3. Gudkova E. A., Vasilyeva A. B. Ashula darsi metodikasi. – Toshkent, 1963.
4. Imomova M. O. Pedagogika fanidan ma’ruzalar matni. – Toshkent, 2000.
5. Sharipova G., Najmetdinov G‘., Xodjayeva Z. Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari. – Andijon, 2020.